

11-SINF. JAHON TARIXI
BSB-2.

DEMO variant **Sana:** _____
Sinf _____ **O'quvchining**
F.I.SH. _____

1-topshiriq. Jadvalda berilgan to'g'ri ma'lumotlarga “+” belgisini, noto'g'ri ma'lumotlarga “-” belgisini qo'ying. Maksimal 5 ball.

№	Ma'lumotlar	Javoblar
1	Qozog'istonning yangi konstitutsiyasida eng katta vakolatlar prezidentga berildi.	
2	2005-yilgi «Lolalar inqilobi» juda tez va katta yo'qotishlarsiz amalga oshirilib, K. Bakiyevni hokimiyatdan ag'darib tashladi.	
3	Ispaniyada hokimiyatga kelgan A.Sipras boshchiligidagi so'llar hukumati mamlakatning qarzini kreditorlar qo'ygan shartlar bo'yicha uza olmasligini e'lon qildi.	
4	2016-yil sentabrda Bratislava shahrida bo'lib o'tgan YI rahbarlari yig'ilishida ilk bor Germaniya bosh vaziri qatnashmadi.	
5	Dunyo bo'yicha yangi texnologiyalarni yaratishga sarflanayotgan barcha xarajatlarning 1/3 qismi AQSH ulushiga to'g'ri keladi.	

2-topshiriq. Berilgan ma'lumotlar qaysi shaxsga aloqador ekanligini aniqlang va uning nomini yozing. Maksimal 5 ball.

№	Ma'lumotlar	Shaxs
1	U boshchiligidagi hukumat islohotlarining maqsadi korxonalar uchun eng qulay sharoitlar yaratish, kichik va o'rta biznesni qo'llab-quvvatlash va natijada ishsizlikni kamaytirish edi.	
2	Germaniyada federativ tizimni isloh qilish, byurokratiyaga qarshi kurashish, ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish kabi siyosatlarni e'lon qildi.	
3	Uning siyosati M. Tetcher davridagi neokonservatizm kursini davom ettirishga qaratilgan edi.	
4	Britaniya tashqi ishlar vaziri hisoblanib, E. Bler siyosatidan norozilik ramzi sifatida iste'foga chiqdi.	
5	U 2012-yili Fransiyada boylar uchun qo'shimcha soliq o'rnatish tashabbusi bilan chiqdi.	

3-topshiriq. Matnda berilgan ma'lumotlar asosida ushbu davlat nomi (1 ball), mustaqillik sanasi (2 ball) va mustaqillik e'lon qilinganidan keyingi 1-prezidenti ismini (2 ball) yozing. Maksimal 5 ball.

1993-yil noyabrda milliy valyutasi muomalaga kiritildi. Shu yil dekabrda hukumat yirik neft konsernlari bilan Kaspiy dengizining shimoliy qismida qidiruv o'tkazish to'g'risida

kelishuv imzoladi. Yirik korxonalarni xususiylashtirish amalga oshirildi. O'tgan davrda mamlakat iqtisodiyotining asosiy sohalari neft, gaz va metallurgiya bo'lib qoldi. Aynan shu sohalarning hisobiga iqtisodiyotning boshqa sohalarida ham jadal o'sishga erishildi.

Savollar	Javoblar
Davlat nomi	
Mustaqillik sanasi	
Mustaqillik e'lon qilinganidan keyingi 1-prezidenti	

4-topshiriq. Bill Klinton davrida AQSHda iqtisodiy va siyosiy taraqqiyot haqida ma'lumot bering. Maksimal 5 ball.

5-topshiriq. Berilgan savollarga qisqa javob yozing. Maksimal 5 ball.

1. So'nggi yillarda jahonda qaysi mahsulotga bo'lgan talabning pasayishi natijasida Turkmaniston iqtisodiyotining o'sish sur'atlari susaydi?

2. Qaysi bitimning kuchga kirishi natijasida YI mamlakatlari fuqarolari hech qanday vizasiz Ittifoqning istalgan mamlakatida yashashi va mahalliy saylovlarda ishtirok etishi mumkin bo'ladi?
